



ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA ULARNING TA'LIM JARAYONIDAGI AHAMIYATI

Seytekova Venera Joldasbaevna

Nukus shahri 9-sonli maktab matematika o'qituvchisi

Annotatsiya Mazkur maqolada pedagogik texnologiyalar va ularning zamonaviy ta'lim jarayonidagi o'rni tahlil qilinadi. Dasturlashtirilgan o'qitish, kompyuterli ta'lim va innovatsion pedagogik texnologiyalar, jumladan, loyihalar uslubi kabi yondashuvlar talabalarning bilim olish jarayonini takomillashtirishga xizmat qilishi ta'kidlanadi. Tadqiqotda o'qitish jarayonining individual xususiyatlarini hisobga oluvchi adaptiv yondashuvning samaradorligi, talabalarning mustaqil ijodiy fikrlashini rivojlantirish imkoniyatlari va o'quv jarayonini insonparvarlashtirish muhimligi yoritilgan. Shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalarning afzalliklari va kamchiliklari tahlil qilinib, ularning ta'lim jarayonidagi ahamiyati ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: pedagogik texnologiya, dasturlashtirilgan o'qitish, innovatsion ta'lim, kompyuterli o'qitish, adaptiv o'qitish, loyihalar uslubi, o'quv jarayoni, mustaqil fikrlash.

СОВРЕМЕННЫЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ТЕХНОЛОГИИ И ИХ ЗНАЧЕНИЕ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

Аннотация В статье анализируются педагогические технологии и их роль в современном образовательном процессе. Подчеркивается, что такие подходы, как программированное обучение, компьютерное обучение, инновационные педагогические технологии, в том числе метод проектов, способствуют совершенствованию процесса обучения студентов. В исследовании подчеркивается эффективность адаптивного подхода, учитывающего индивидуальные особенности процесса обучения, возможности развития самостоятельного творческого мышления учащихся, а также важность гуманизации процесса обучения. Также анализируются преимущества и недостатки современных педагогических технологий, показывается их значение в образовательном процессе.

Ключевые слова: педагогические технологии, программированное обучение, инновационное образование, компьютерное обучение, адаптивное обучение, проектное обучение, процесс обучения, самостоятельное мышление.

MODERN PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES AND THEIR IMPORTANCE IN THE EDUCATIONAL PROCESS

Abstract This article analyzes pedagogical technologies and their role in the modern educational process. It is emphasized that such approaches as programmed learning, computer-based learning and innovative pedagogical technologies, including the project method, serve to improve the process of students' learning. The study highlights the effectiveness of an adaptive approach that takes into account the individual characteristics of the educational process, the possibilities of developing students' independent creative thinking, and the importance of humanizing the educational process. The advantages and disadvantages of modern pedagogical technologies are also analyzed, and their importance in the educational process is shown.

Keywords: pedagogical technology, programmed learning, innovative learning, computer-based learning, adaptive learning, project method, educational process, independent thinking.

KIRISH

Pedagogik texnologiya maqsadi o‘qituvchi rahbarligida talabaning o‘quv muammolari yechimiga qaratilgan mustaqil ijodiy izlanuvchanlik qobiliyatlarini shakllantirishga qaratilgan. Pedagogik texnologiya tadbig‘i talabada yangi bilimlar, uquv va malaka, rivojlanuvchi bilish qobiliyati, eruditsiya (bilim, aql-zakovat), bilishni sevishtirish, ijodiy fikrlash kabi muhim ahamiyatga ega boshqa shaxsiy fazilatlar hamda qobiliyatlarni shakllanishiga olib keladi. Ushbu texnologiyada pedagog bilimlarni tayyor holda yetkazmaydi, balki talabaga mavzu bo‘yicha muammoli vaziyat hosil qiladi va muammo yechimi bo‘yicha unda fikr va g‘oya uyg‘onishiga sharoit yaratadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Dasturlashtirilgan o‘qitish texnologiyasi g‘oyasi mualliflari Amerikalik olimlar N. Krauder, B.Skinner, S.Pressi va Rossiyalik P.Y. Galperin, L.N.Linda, A.M. Matyushkin, N.F. Talizinlar hisoblanadi.

Ushbu texnologiya maxsus texnik vositalar yordamida (kompyuterlar va b.) oldindan ishlab chiqilgan o‘qituvchi- dasturlar yordamida shaxsan mustaqil o‘qishga asoslangan va u har bir talabaning shaxsiy xususiyatlarini (o‘qish sur‘ati, o‘zlashtirish darajasi va b.) hisobga olib tashkil etiladi. Didaktik prinsiplari [1]:

➤ o‘quv materiallarini oson o‘zlashtirish imkonini beruvchi uncha kata bo‘lmagan bo‘limlarga ajratish;

➤ o‘quv faoliyatini ketma-ket bajarilishini ta‘minlovchi tizimni kiritish;

➤ har bir o‘quv materialini yoki qismlarini o‘zlashtirilish sifatini tekshirish;

➤ tekshirish natijasi bo‘yicha keyingi bosqichga o‘tish yoki qayta o‘rganish;

➤ nazorat ishlarini bajarishning o‘ziga xos xususiyati (ichki va tashqi teskari aloqa

«pedagog-talaba») [2].

Dasturlash prinsiplari:

- ✓ chiziqli (*shaxsiy sur'atda dasturni qadamma-qadam o'zlashtirish ketma-ketligi*);
- ✓ tarmoqlangan (*to'g'ri va noto'g'ri javoblar paradigmasida shaxsan o'qish jarayoni*);
- ✓ aralash (*sheffild va blokli texnologiya*).

Dasturlashtirilgan matnlarni taqdim etish usullari [3]:

- ✓ axborot-kommunikatsiya texnik vositalari (*talabaga yangi axborotlarni uzatish*);
- ✓ mashina-nazoratchi (*bilimni nazorat qilish va baholash*);
- ✓ repetitor mashinalar (*bilimlarni mustahkamlash maqsadida qaytarish*);
- ✓ mashq qilish mashinalari (*talabada kerakli amaliy uquv va malakani shakllantirish*).

Kompyuterli o'qitish texnologiyasi afzalliklari:

maxsus kompyuterli o'qitish dasturlari yordamida keng doirada turli-tuman didaktik vazifalarni yechish imkoniyati;

o'qishning axborot bazasini kengayishi (elektron kutubxonalar, milliy va chet el o'quv-uslubiy bazalari, Internet);

o'qitishning shaxsiy sur'ati (adaptiv kompyuter dasturlari.)

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Pedagogik texnologiya quyidagi belgilar bilan xarakterlanadi:

- o'qitish va tarbiyalash maqsadlarini ketma-ket ishlab chiqish;
- o'zlashtirishga mo'ljallangan axborotlarni tarkiblash, tartibga solish va zichlash;
- o'qitish va nazorat qilishning didaktik va texnik, shu jumladan kompyuter vositalaridan majmuali foydalanish;
- o'qitish va tarbiyalashning tashxis funksiyasini kuchaytirish;
- o'qitishning yetarli darajadagi yuqori sifatini kafolatlash.

Pedagogik innovatika (yangilik kiritish, innovatsiya) – ta'lim muassasasining faoliyatiga nisbatan barqaror yangilik elementlarini kiritib, uning rivojlanishi va faoliyat ko'rsatishiga samarali ta'sir etuvchi maqsadga yo'naltirilgan o'zgartirishdir.

Innovatsion pedagogik texnologiyalar aynan ta'lim-tarbiya jarayonida talaba-talabalar (tinglovchilar)ga muayyan fan (mavzu) bo'yicha bilim berish va shaxsini shakllantirishga qaratilgan o'qitishning zamonaviy uslublari va texnik vositalari majmuidir.

Pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonida foydalanish darajasi, falsafiy asoslari, o'zlashtirishning ilmiy konsepsiyasi, shaxsiy qobiliyatlarni shakllantirishga mo'ljallanganligi va takomillashtirish xarakteriga ko'ra quyidagicha tasniflashi mumkin:

❖ Foydalanish darajasiga ko'ra:

- *umumpedagogik*;
- *shaxsiy uslubiy (fan bo'yicha)*;
- *lokal (modulli)*.

❖ **Falsafiy asoslariga ko‘ra:**

- *ilmiy va diniy;*
- *gumanistik;*
- *avtoritar.*

❖ **Tajribani o‘zlashtirishning ilmiy konsepsiyasiga ko‘ra:**

- *assotsiativ-reflektor;*
- *bixevioristik;*
- *interiorizator;*
- *rivojlantiruvchi.*

❖ **Shaxsiy qobiliyatlarni shakllantirishga mo‘ljallangan- ligi bo‘yicha:**

- *axborot (bilim, uquv va malakani shakllantirish);*
 - *jarayonli (aqliy harakat qobiliyatlarini shakllantiruvchi);*
 - *evristik (ijodiy qobiliyatlarni rivojlantiruvchi);*
- amaliy (real-amaliy sohada malakani shakllantirish).*

An‘anaviy o‘qitish tizimini takomillashtirish xarakteriga ko‘ra:

- talaba faoliyatini faollashtirish va intensivatsiya-
- lashtirish texnologiyasi;
- o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi faoliyatni insonparvarlash- tirish va demokratlashtirish asosidagi texnologiya;
- o‘quv materialini didaktik qayta ishlash asosidagi texnologiya.

An‘anaviy o‘qitish tizimini takomillashtirish quyidagi ko‘rinishlarda amalga oshirilishi mumkin:

- ✓ yetakchi maqsad va vazifalar bo‘yicha;
- ✓ o‘qishni tashkil etish shakliga ko‘ra;
- ✓ asosiy o‘qitish uslubiga ko‘ra.

Pedagogik texnologiyaning didaktik tarkibi quyidagilarni hisobga oladi:

- foydalanish darajasi;
 - falsafiy asosi;
 - bilimni o‘zlashtirishning yetakchi konsepsiyasi;
 - ta’lim mazmunining farqlanuvchi xarakteri;
 - o‘qitishni tashkil etish shakli;
 - yetakchi o‘qitish uslubi;
- talabalar kategoriyasi.

NATIJALAR

An‘anaviy texnologiyaning asosiy xususiyatlari va didaktik mazmuni quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- bilim berish, uquv va malakani shakllantirishga mo‘ljallanadi;
- talabalarni reproduktiv darajada o‘quv mazmunini

o‘zlashtirishlarini hamda uni nazorat qilish va baholashni ta’minlaydi;

- yetakchi uslub-ko‘rgazmalar asosida tushuntirish;
- talabalarning asosiy faoliyati turi - tinglash va eslab qolish;
- didaktik mezoni – o‘rganilganlarni xatosiz eslash va amalda qo‘llash.
- Didaktik sxemasi: yangi materialni o‘rganish- mustahkamlash-nazorat-baholash;

Afzalliklari:

- ✓ rejalilik, tejamlilik;
- ✓ ta’lim-tarbiya jarayonini boshqarishning samaradorligi;
- ✓ bilimlarni bayon etishning yangi usullaridan foydalanish imkoniyati.

Kamchiliklari:

- ✓ o‘quv jarayonining shaxsiy va differensial imkoniyatlarini cheklanganligi;
- ✓ talabaning aqliy rivojlanishini past potentsialligi.

Adaptiv (moslanuvchan) o‘qitish texnologiyasi turli darajali o‘qitish texnologiyasining har xilligi bilan farqlanadi. Talabalarning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda o‘quv mashg‘ulotlarining moslashuvchan tizimini tashkil etishni ko‘zda tutadi. Unda asosiy e’tibor talabalarning o‘quv qobiliyatlarini shakllantirishga qaratiladi.

Asosiy xususiyatlari:

● **o‘quv jarayonini tashkil etish shakli:**

- ✓ o‘qituvchi bilan birgalikda;
- ✓ pedagog bilan shaxsiy;
- ✓ pedagog rahbarligida mustaqil ishlash.

● **talabalarning faol mustaqil faoliyatiga asosiy e’tibor qaratish:**

- ✓ asosiy va qo‘shimcha adabiyotlar bilan ishlash;
- ✓ referatlar tayyorlash;
- ✓ laboratoriya va amaliy ishlarni bajarish;
- ✓ turli nazorat ishlarini bajarish.

Loyihalar uslubi majmualari uslub hisoblanib, hozirgi vaqtda o‘quv jarayonida qo‘llanilayotgan barcha innovatsion pedagogik uslublarni o‘zida mujassamlashtiradi.

Loyihalar uslubi – o‘qituvchi nazoratida yangi mahsulot va xizmatlar yaratish jarayonida talabaning intellektual va jismoniy imkoniyatlarini, mustaqillik va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish yo‘li orqali shaxsning o‘z qobiliyatlaridan to‘liq foydalanishga yo‘naltirilgan o‘quv jarayonini tashkil etishning amaliy ahamiyat kasb etuvchi, sub’ektiv va ob’ektiv yangiliklarga ega moslashuvchan modeli va o‘qitish tizimidir. Ana shunday innovatsion pedagogik texnologiyalardan biri «Loyihalar uslubi» hisoblanadi.

Hozirgi kunda loyihalar uslubi dunyoda eng keng tarqalgan pedagogik texnologiya sifatida AQSh, Rossiya, Buyukbritaniya, Belgiya, Izrail, Finlyandiya, Germaniya, Italiya,

Braziliya, Niderlandiya va shu kabi ko‘pgina rivojlangan davlatlar ta’lim jarayonida keng foydalanilmoqda.

XULOSA VA MUNOZARA

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, pedagogik texnologiyalarni ta’lim jarayoniga samarali tatbiq etish talabalarning bilim olish jarayonini takomillashtirishga, mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga katta hissa qo‘shadi. An’anaviy o‘qitish tizimi rejalilik va boshqaruv samaradorligi bilan ajralib tursa-da, talabalarning individual xususiyatlarini to‘liq hisobga ololmaydi. Shu sababli zamonaviy innovatsion texnologiyalar, ayniqsa, kompyuterli va adaptiv o‘qitish metodlari, o‘quv jarayonining sifatini oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

Biroq, pedagogik texnologiyalarni joriy etishda muayyan tashkiliy va moliyaviy muammolar mavjud bo‘lib, ularni hal etish uchun ta’lim muassasalarining moslashuvchanlik darajasini oshirish talab etiladi. Xususan, loyihalar uslubi kabi innovatsion metodlarni keng joriy qilish orqali talabalarning mustaqillik darajasini oshirish va ularga real amaliy tajriba berish ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Rahimov O.D., Turg‘unov O.M., Mustafoev K.O. Oliy Talimda massafaviy oktitishni tashkil etish. //O‘qituvchi yaxshi o‘qituvchi. Qarshi, 2012 yil. 60 b.
2. Yakovleva N.O. Pedagogik loyihalashning nazariy va uslubiy asoslari. M.: ATiSO nashriyoti, 2012. - 239 b.
3. Faktorovich A. A. Pedagogik texnologiyaning mohiyati / Pedagogika. 2018 yil. 2-son
4. Slobodchikov V. I. Ta'limdagi innovatsiyalar: asoslari va ma'nosi. / Maktab o'quvchilarining tadqiqot ishlari. 2014 yil. № 2.
5. Selevko G.K. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari: Darslik. / M.: Xalq ta'limi, 2018. – 256 b.
6. Levilar D.G. O'qitish amaliyoti: zamonaviy ta'lim texnologiyalari. /M.: “Amaliy psixologiya instituti” nashriyoti; Voronej: NPO "MODEK", 2018 yil.
7. Qodjaspirova G.M. Ta'lim va pedagogik fikr tarixi: Jadvallar, diagrammalar, ma'lumotnomalar: oliy o'quv yurtlari talabalari uchun o'quv qo'llanma. /M., 2013 yil.